ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIGA KIRITILGAN “ISHYOQMAS KISHI” HIKOYATINI QUYI SINF O`QUVCHILARIGA O`RGATISH USULI

Jo‘rayeva Dilovarxon Valijon qizi
dilovarxonjorayeva05@gmail.com
Qo`qon Davlat Universiteti talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23791264

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi “Ishyoqmas kishi” hikoyasini quyida sinf o'quvchilariga o'qitish metodikasi yoritilgan. Unda mumtoz matnlarni o'quvchilar yoshiga moslashtirish, zamonaviy interfaol metodlar (FSMU, “O'ylab ko'r!”) hamda AKT dasturlari (Wordwall) yordamida darslarni tayyorlash yo'llari ochib berilgan, o'quvchilarni mehnatsevarlik, mas'uliyat va halollik ruhida tarbiyalashga amaliy topshiriqlar namunasi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”, ishyoqmas kishi, tanballik va mehnatsevarlik, mumtoz adabiyoti, FSMU texnologiyasi, Wordwall, Interfaol metodlar.*

Аннотация: *В данной статье освещается методика преподавания рассказа «Бездельник» («Ishyoqmas kishi») из поэмы Алишера Навои «Лисон ут-тайр» («Язык птиц») учащимся младших классов. В ней раскрываются способы адаптации классических текстов под возрастные особенности учащихся, подготовка уроков с использованием современных интерактивных методов (технология ПОПС, «Подумай!») и ИКТ-программ (Wordwall). Также представлены образцы практических заданий, направленных на воспитание учащихся в духе трудолюбия, ответственности и честности.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, «Лисон ут-тайр», бездельник, лень и трудолюбие, классическая литература, технология ПОПС, Wordwall, интерактивные методы.*

Abstract: *This article highlights the methodology of teaching the story "The Idle Man" ("Ishyoqmas kishi") from Alisher Navoiy's epic poem "Lison ut-tayr" ("The Language of the Birds") to lower-grade students. It outlines ways to adapt classical texts to the age of students, design lessons using modern interactive methods (PRES formula, "Think about it!"), and ICT tools (Wordwall). Additionally, it provides samples of practical tasks aimed at educating students in the spirit of diligence, responsibility, and honesty.*

Keywords*: Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr", idle man, laziness and diligence, classical literature, PRES formula, Wordwall, interactive methods.*

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi “Ishyoqmas kishi” hikoyati yoshlarni mehnatsevarlik va mas'uliyat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, faqat mumtoz matnlarning tili zamonaviy o'quvchilar, quyi sinf bolalari uchun murakkablik tug'dirishi ularning o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtirmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi hikoyatni quyi sinf o`quvchilariga moslashtirgan holda, zamonaviy interfaol metodlar (FSMU, SWOT) va AKT dasturlari (Wordwall) yordamida o'qitishning eng qulay va samarali usullarni ishlab chiqishdan iborat.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

T/R	ASLIYAT	NASRIY BAYONI
1	Xalq ichinda bor edi **beg'ayrate,** Elga beg'ayratlig'idin **hayrate.**	Halq orasida bir **ishyoqmas, tanbal** kishi bor edi. Odamlar uning beg'ayratligidan **hayron qolar** edilar.
2	Mushtu **silli** birla **obboni** yebon, Eldin olib **luqmau** oni yebon.	U odamlardan **musht, shapaloq** yoki **tepki** yer, buning evaziga ulardan ye**gulik** olar edi.
3	**Qovlabon**, ketmay xaloyiq ko'yidin, Balki chiqmay **dunsifatlar** uyidin.	Uni **quvib yuborsalar** ham hech qayerga ketmay, o'zining **patkash** qiliqlarini tark etmadi.
4	Bu jafolarg'a **tuz etmish** erdi narx. Qaysi bir tepsa, urub bir qatla **charx.**	U o‘zi xalqdan tepki yeb tortadigan jafolarining narxi belgillangandi.
5	Ul **muqarrar muzdni** olur edi, Nafs **komin** og'zig'a solur edi.	U o'sha kishidan buning **haqini** talab qilib olar, qo'liga tushgan **narsani** darhol og'ziga solar edi.
6	To berib bir **pora** non bir **chustdast,** Qildi bir musht urg'och, ondoq yerga past.	Kunlardan bir kuni kimdir uning qo'liga bir **parcha** non berib. shunday musht tushirdiki, natijada tanbal yer tishlab qoldi.
7	Garchi **sillilar ye**makdin to'q edi, Musht yeb go'yoki hargiz yo'q edi.	Garchand u **shapaloqlar ye**b, qornini to'yg'azib yurgan bo'lsa-da, bir musht bilan endi qayta o‘midan turmaydigan bo'ldi. **Xulosa**: inson tirikchilik uchun tanlagan kasbi ham o‘ziga, g’am elga manfaatli bo‘lishi kerak. Aks holda foydasiz kasb o‘z egasini xorlikka mahkum qiladi.

Darsning maqsadi: O’quvchilarga xohish-istak, mas’uliyatsizlik va oqibat tushunchalarini sodda tilda tushuntirish, yaxshilik va yomonlikni ajrata olishga o‘rgatish, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Kirish: Dasrning avvalida o‘qituvchi bugun o‘rganilishi lozim bo‘lgan hikoyatning mavzu va g’oyasi haqida qisqacha ma’lumot beradi:

Hikoyat tanbal kishining beg’ayratligi va xatti-harakatlari tufayli duch kelgan oqibatlarini ko‘rsatadi. Odamning harakatlari va natijalari o‘rtasidagi bog’liqlikni ochib beradi.

1-BOSQICH. O`QUVCHILARNI DARSGA QIZIQTIRISH

Mazkur bosqichni amalga oshirish uchun interfaol usullardan foydalaniladi.

1“O`ylab ko‘r!” metodi

O’quvchilarga savol beriladi: Agar siz tanbal kishining o‘rnida bo‘lsangiz, qanday harakat qilgan bo‘lardingiz?

O’quvchilar o‘z variantlarini aytib, hikoyatdagi xatti-harakatlarni oldindan taxmin qiladilar.

2-BOSQICH: ASOSIY QISM

1. Hikoyatni ifodali o‘qish

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

O’quvchilarga avval hikoyatning asl matnini, so‘ngra soddalashtirilgan nasriy bayoni ifodali qilib o‘qib beriladi, tushunilishi qiyin so‘zlar izohlanadi. Masalan:

1. **Beg`ayratlik** – mas’uliyatsizlik, hech narsaga e’tibor bermaslik
2. **Tanballik**– ishlashni xohlamaslik
3. **Oqibat** – qilgan ishlarning natijasi

Bu so‘zlar quyi sinf o‘quvchilari uchun tushunilishi murakkab bo‘lganligi sababli, ular soddalashtirish usulida yetkazib beriladi.

2."FSMU" texnikasi metodi. O’quvchilar hikoyatning asosiy xulosasini tahlil qiladilar.

Topshiriq: jadvalni quyidagi tartibda davom ettiring.

Ushbu metod orqali o‘quvchilar o‘z fikrini bildirishni, bildirilgan fikrga sabablar keltirishni, sabablarni misollar orqali dalillashni va so‘ngida esa manashu hikoyatdan qanday xulosa chiqarayotganini yoritib beradi.

T/r	Bosqich	To'liq nomi	Vazifasi	Izoh va harakat
1	**F**	Fikr	Maqsadni bayon qilish	O'z qarashingizni aniq va lo'nda ayting.
2	**S**	Sabab	Asoslash	Nima uchun bunday deb o'ylashingizni mantiqan tushuntiring.
3	**M**	Misol	Isbotlash	Fikringizni tasdiqlovchi hayotiy yoki ilmiy dalil keltiring.
4	**U**	Umumlashtirish	Yakunlash	Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa yasang.

T/R	Bosqich	Mazmuni	Izoh va Tahlil
1	F (Fikr)	Haqiqiy boylik va erkinlik moddiy martabaga bog'liq emas.	SHoh taxtda bo'lsa-da, tashvishlarga asir, gado esa hech vaqosi yo'qligi sababli erkin bo'lishi mumkin.
2	S (Sabab)		
3	M (Misol)		
4	U (Umumlashtirish)		

1. Wordwall” elektron progammasi asosidagi metod.

Topshiriq: berilgan atamalarni izohlari bilan birlashtiring.

Ushbu metod tasavvufiy ma’nodagi so‘zlarni hozirgi kundagi muqobili bilan birlashtirishni o‘z ichiga oladi. O’quvchilar ushbu metod orqali hikoyat matnini yanada aniq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar. Metod o‘quvchilardan diqqatni bir joyga jamlash va tezkorlikni talab qiladi.

https://wordwall.net/resource/108811356

3-BOSQICH: YAKUNLOVCHI BOSQICH

Darsning yakuniy qismida o‘quvchilar hikoyat matni bilan yaqindan tanishib, hikoyat mavzusida ko‘tarilgan mavzu va g’oyani anglab yetgach, har bir o‘quvchi quyidagi gaplarni mantiqiy, tahliliy va hayotiy misollar aytadilar.

1.“Tanbal kishining harakati unga yomon oqibat keltirdi.”

2.“O’z harakatlarimiz natijasini bilish muhim.”

3.“Mehnat qilish va mas’uliyatli bo‘lish kerak.”

Har bir o‘quvchi fikri eshitilgach, o‘qituvchi yakunlovchi xulosa beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. – T.:Akademnashr,2011.
2.Sirojiddinov Sh. Yusupova D.Davlatov O.Navoiyshunoslik. -T.:Tamaddun,2018.
3.Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari. -T.:2023.
4.Shamsiyev P.Ibrohimov S.Navoiy asarlari lug‘ati. -T.:G‘afur G‘ulom,1972.
5.Navoiy A.Lison ut-tayr. -T.:G`afur G`ulom,2005.
6. Nurbayeva.M. Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi.-T.:Fan,2007.
7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. -T.:Malik Print Co,2021.
8.Quronov D.Adabiyotshunoslikka kirish. -T.:Fan,2007.
9.https://uz.wikipedia.org/wiki/Lison_ut-tayr

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz